

INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNING INSON RESURLARINI BOSHQARISHDAGI O`RNI VA XUSUSIYATLARI

Ergashev Toxir Kurbanovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, "Biznes va innovatsion menejment"
kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning asosiy omili bo'lgan investitsiya siyosati masalalariga va uning inson resurslarini boshqarishga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada davlat tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosati investitsiyalar uchun real ikoniyatlar va sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu esa investitsiya bozorida davlatning samarali ishtirokini rag'batlantiradi hamda inson resurslarini boshqarishda muhim hissa qo'shadi. Shuni hisobga olgan holda davlat jamiyatdagi investitsiya faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi va dinamik iqtisodiy muhitda qulay investitsiya muhitini yaratish uchun maqsadli ravishda tegishli investitsiya siyosatini olib borish vositalarini yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat resurslar, inson resurslarini boshqarish, investitsiya siyosati, investitsiya faoliyati, byudjet, sarmoyalar, resurslar, strategiya, amortizatsiya, samaradorlik, investitsiya muhiti*

Kirish

Bugunki kunda kelib investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uning eng muhim ijtimoiy masalasi hisoblangan inson resurslarini boshqarishni samaradorligini ta'minlash uchun juda muhim omillardan biridir. Bunga asosiy sabab, ular har qanday mamlakatda iqtisodiyot darajasida sodir bo'ladigan eng asosiy iqtisodiy jarayonlarning bir meyorda borishi va uning tarmoq va mintaqaviy segmentlari hamda alohida iqtisodiy subyektlarini oldindan belgilab beradi.

Hozirgi davrda jahonda bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar tajribasidan bizga ma'lumki investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish va bandlik darajasiga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga va iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining rivojlanishiga ta'sir qilib iqtisodiyotni asosiy harakatga keltiruvchi asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Agar biz uni birgina sanoat sohasida olib qaraydigan bo'lsak, sanoatda investitsiyalarining o'sishi birinchi navbatda mehnat unumdorligining oshishiga, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilashga, mavjudlaridan to'liq foydalanishga va yangi ish joylarini yaratishga olib keladi. Shu sababli ham kiritiladigan investitsiya resurslarining hajmi va mavjudligi ulardan ratsional foydalanish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning uzoq muddatli omili bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki davlat investitsiya siyosati, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi hisoblanib, o‘zining investitsiya faoliyatiga nisbatan o‘z pozitsiyasini doimo belgilaydi. Shu bilan birga investitsiya siyosatidagi davlatning asosiy maqsadlarni, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarni va mamlakatda investitsiya faoliyatida davlat boshqaruvi shakllarini belgilaydi. Bu bilan esa yangi ish joylari yaratish hisobida o‘sib kelayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta‘minlash muammosini hal qiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Milliy iqtisodiyotda barqaror investitsiya siyosatni amalga oshirish va uni samarali boshqarishni shakllantirish va shu asosda inson resurslarini boshqarishning nazariy va amaliy masalalari xorijiy davlatlar olimlaridan U.Sharp, G.Aleksander, Dj.Beyli [1], MDH mamlakatlari olimlaridan, P.L.Vilenskiy, V.N.Livshits, S.A.Smolyak [2], V.T.Zolotogorov [3], Dj.M.Keyns [4] kabi olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari asosida tayyorlangan ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda investitsiya siyosati va inson resurslarini boshqarishni muammolari va ularni yechimini topish masalasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar Q.X.Abduraxmonov [5] D.G‘.G‘ozibekov[6], A.T.Uzoqov, SH.Ergasheva, [7] kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida batafsil ko‘rsatib berilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan xorijiy va O‘zbekistonlik olimlarning aynan shu sohaga qo‘shgan hissalar, ilmiy xulosalar chiqarish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular tomonidan iqtisodiyotda investitsion siyosatni amalga oshirish, inson resurslarini boshqarishni ta‘minlash masalalari O‘zbekistonda mustaqillik davrlariga mos holda tadqiq etilgan. Shu bilan birga, u hozirgi vaqtdagi investitsion siyosatni amalga oshirish va boshqarish masalalarini jumladan, inson resurslarini boshqarish sohasida olib borilayotgan islohotlarning hozirgi davriga xos xususiyatlarini ochib berolmaydi.

Shu sababli ham ilmiy izlanishlarimizda va uning natijalarini tayyorlashda, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmiga hamda investitsiya jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni qiyosiy tahlil va solishtirish, inson resurslarini boshqarish muammolarini tizimli tahlil, usullaridan foydalanilgan holda o‘rganib chiqilgan.

Davlatning investitsiya siyosatining ta‘rifi ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda va qonun hujjatlarida turli xil talqinlarda berilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida u quyidagicha keltirilgan: “Investitsiya siyosati-O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta‘minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo‘naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmui”[6]. Buni mamlakatimizda investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni ko‘tarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish maqsadida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay shart-sharoitlarni davlat tomonidan yaratish bo‘yicha amalga oshiriladigan kompleks maqsadli chora-tadbirlar majmui sifatida tushinish mumkin.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

Shunday qilib, davlatning investitsiya siyosati - bu investitsiya jarayonini kuchaytirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish maqsadida investitsiya faoliyatini boshqarish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.

Davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: investitsiya faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni safarbar etish, investitsiya faoliyatining yomonlashuvini bartaraf etish, davlatga yo'naltirilgan qurilish dasturlarini amalga oshirish, tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash va kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish, va shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayotini sezilarli darajada yaxshilash.

Tadqiqot Metodologiyasi


Tahlil jarayonida mutlaq va nisbiy tafovutlar, guruhlash, ekspert baholash va prognoz, ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi..

Tahlil va Natijalar

Mamlakatning investitsiya siyosatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olinadi:

- 1) iqtisodiyotning ayrim asosan yetakchi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash (rag'batlantirish);
- 2) iqtisodiyot tarmoqlari va eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni mutanosib rivojlanishini ta'minlash;
- 3) mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotini raqobatdoshligiga erishish;
- 4) ijtimoiy va ekologik dasturlarni amalga oshirish (sog'liqni saqlashni rivojlantirish, ta'lim, uy-joy kommunal xizmatlari va atrof-muhitni muhofaza qilish);
- 5) bugunki kunning eng dolzarb muammolaridan hisoblangan aholining bandligini ta'minlash va tartibga solish;
- 6) davlatning mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash.

Mamlakatning investitsiya siyosati bir vaqtning o'zida ham davlat tomonidan, ham xususiy investorlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar uchun birdek qulay investitsiya muhitini yaratib berishni o'z ichiga oladi. Investitsiya muhitining qulayligini aniqlash uchun investitsiya muxitini baxolash zarur bo'ladi. Investor investitsiya muhitini baholash jarayonida investitsiyalashning risk darajasini qandayligini aniklaydi. Investitsiya muxiti qanchalik yaxshi bo'lsa investitsion jozibadorlik yuqori bo'ladi va investitsiyalarning kirib kelishi ko'payadi, aks holda esa investorning uz tadbirkorlik riski yuqori bo'ladi investitsiya oqimi kamayadi. Makro darajada investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi 1-chizmada tasvirlangan.



Ak

1 - chizma. Investitsion muhitni belgilovchi omillar [5].

Makro darajada investitsiya muhitini investitsiyalar kiritiladigan mamlakatdagi investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi deb qarash mumkin. Shundan kelib chiqib investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar ham ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bo'linadi.

Investitsiyalar muhitiga ta'sir qiluvchi siyosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati;
- xalqaro shartnomalarga amal qilish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi;
- xalqaro shartnomalarga ishtirok etish tizimi;
- davlat apparati ishlarining samaradorligi;
- siyosiy barqarorlik va boshqalar.

Demak bu siyosiy omillar xorijiy investitsiyalarga ta'luqli bo'ladi. Bundan tashqari investitsion muhitga kuchli ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillar ham mavjud bo'lib barqaror rivojlanayotgan davlatlarda ularning ta'sir kuchli bo'lmaydi.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

Bundan tashqari investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar ham mavjud bo'lib bular jamiyat a'zolarining xususiy mulkga bo'lgan munosabati, mavkuraviy bilim darajasi va ishchi sinfining munosabatlari bilan belgilanadi.

Davlat tomonidan investitsiyalar to'g'risida qabul qilingan qonunlar va qonun osti hujjatlari hamda, davlat investitsiya dasturlarining asosiy maqsadi investitsiyalarini maksimal samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Bozor munosabatlari sharoitida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tartibga solish usullari, shuningdek ma'muriy va iqtisodiy vositalar ushbu yo'nalishda tartibga solish bilan ajralib turadi. Ikkala usul va vosita ham umumiy maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Investitsiya operatsiyalariga davlatning ta'siri bu qulay investitsiya muhitni ta'minlash va investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirishning zaruriy shartidir bo'lib, u butun ijtimoiy manfaatlar uchun hamda ijtimoiy va iqtisodiy tizimni barqaror rivojlanishiga imkon beradi.

Investitsiya faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan tartibga solishning ba'zi jihatlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Davlat investitsiyalari davlat siyosatining strategik muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lib, ular ko'pincha tijorat xususiyatiga ega bo'lmaydi. Shuning uchun davlat investitsiyalarining past iqtisodiy samaradorligi to'g'risida fikrlar hozirgi vaqtda ham mavjud. Mamlakat miqyosidagi davlat investitsiyalarining samaradorligi ularning barqaror iqtisodiy yo'naltirilganligi, jamiyatning o'sishi va ijtimoiy taraqqiyoti rivojlanganligini hisobga olib ko'rib chiqilishi kerak. Buning uchun albatta davlat sarmoyalaridan samarali foydalanishini ta'minlovchi mexanizmini yaratishi kerak. Bunday mexanizmni yaratishning asosiy yo'nalishlari allaqachon ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilib kelmoqda.

Investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solish investitsiya sarmoyalarining maksimal samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Bozor munosabatlari sharoitida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning ikita usuli mavjud. Bular bevosita va bilvosita usullar bo'lib investitsiyalarni tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari tashkil topgan. Yuqorida keltirilgan ikkala usul va vosita ham davlat darajasida umumiy maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Investitsiya jarayonlariga davlatning faol ta'siri o'tkazishidan asosiy maqsad, qulay investitsion muhitni yaratish va investitsiyaviy faoliyatni jonlantirish hamda uning zaruriy sharti bo'lgan va butun jamiyatning ijtimoiy manfaatlar qaratilgan ijtimoiy va iqtisodiy tizimni barqaror rivojlanishiga imkon berishdan iboratdir.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solishning bevosita ya'ni to'g'ridan-to'g'ri usullarini qo'llash bilan investitsiya jarayonlariga ta'sir o'tkazish uchun ham ma'muriy, ham iqtisodiy vositalar qo'llaniladi. Ma'muriy vositalarni qo'llash orqali davlat majburiy xarakterdagi majburiy qarorlarga tayanib investitsiya operatsiyalariga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu vositalarga tijorat subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziyalash, eksport va import kvotalarini belgilash, davlat korxonalari va davlat mulkini boshqarish, ma'muriy tartib-taomillar va boshqalar kiradi. To'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ta'sir tabiatiga ko'ra o'z faoliyatiga ega bo'lgan, bozorning kuchli raqobatiga dosh berolmaydigan, ba'zi mintaqalar, tarmoqlar va

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

muassasalarga sarmoya kiritishda qo'llaniladi. Shu uchun ham iqtisodiyotni bilim talab qiladigan sohalarida sarmoyaviy xatarlar yuqori bo'lganligi sababli, investitsiya jarayoni vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi va loyihalar uzoq muddatli bo'ladi va ular qimmatga tushadi.

Davlat tomonidan investitsiya jarayonlarini bilvosita usullar bilan tartibga solishda faqat iqtisodiy vositalar bilan ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bu vositalarga byudjet, soliq va pul-kredit siyosati kiradi. Investitsiya jarayonlariga bu vositalar orqali bilvosita ta'sir qilish, davlat investitsiya siyosati muammolarini hal qilishda ular tomonidan ham ma'lum maqsadga qaratilgan muayyan choralarni ishlab chiqishga undaydi. Davlat darajasida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy usullari 1-jadvalda ko'rsatib berilgan.

1-jadval.

Bevosita usullar	Bilvosita usullar
-sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarini rivojlantirishga qaratilgan mintaqaviy dasturlar; -mintaqaviy byudjetdan tashqari fondlar; -davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalar; -mintaqaviy standartlar va normalar; -kvotalash; -litsenziya; -hududiy nazorat kvotalari; -hududiy va munitsipal mulk; - Talabni rag'batlantirish va narxlarni tartibga solish. -tadqiqotlar va ishlanmalar uchun davlat tomonidan moliyalashtirish; -chet elda patent olish uchun korxona xarajatlarini qo'llab-quvvatlash	-imtiyozli soliq stavkalari va imtiyozli soliqlar; -soliq imtiyozlari; -kreditlar bo'yicha imtiyozli stavkalar; -eksportni rag'batlantirish bo'yicha kredit choralari: - a)to'g'ridan-to'g'ri eksport kreditlarini berish; - b)eksport kreditlarini qayta moliyalashtirish. - v)eksport kreditlarini sug'urtalash. - g)mintaqani rivojlantirish nuqtai nazaridan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishda davlat qarzlarning kafolatlari to'g'risida. -investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari; -mintaqaviy va munitsipal kreditlar; -mintaqaviy va shahar resurslaridan foydalanganlik uchun to'lovlar; -atrof muhitni ifloslantirgani uchun to'lovlar; -mintaqaviy iqtisodiyotga sarmoya kiritadigan mintaqaviy kredit tashkilotlari uchun kafolatlar va imtiyozlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini xususiylartirish va transformatsiya qilishni jadallashtirish jaroyonlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan murojaatnomada joriy yilda xususiylashtirish va transformatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish hisobida «Navoiy kon-metallurgiya kombinati», «O'zbekneftgaz», «O'zbekgidroenergo», «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag' jalb etish imkoniyatiga ega bo'lishi aytib o'tilgan[7]. Buning natijada birinchidan investitsiyalarning davlat kafolatisiz kirib kelishi bo'lsa ikkinchidan davlat mablag'larining iqtisodiyotning boshqa sohalariga yo'naltirishga imkon yaratadi. Bu esa mamlakatda investitsiya siyosatini yuritishda uning huquqiy asoslarini yaratishni talab qiladi. Huquqiy vositalar davlat ta'sirining ma'muriy va iqtisodiy vositalarini amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

Bunga quyidagilar kiradi: davlat tomonidan tartibga solishning aniq maqsadga yo'naltirilgan tarkibiy qismini kuchaytirish, infratuzilmani qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotda korporativ sektorning raqobatbardosh mavqeini mustahkamlash bilan bog'liq loyihalarni birgalikda moliyalashtirish asosida davlat va kompaniyalar o'rtasida hamkorlik loyihalarining shakllarini ishlab chiqish. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun kapital o'tkazmalarini kapital asosida ta'minlash.

Xulosa va Takliflar

Ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki investitsiya siyosatining davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilardan hisoblanishi zarur:

1. Mamlakatdagi ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
2. Mavjud muassasalarni kengaytirish va ularni texnik jihatdan qayta jihozlash uchun bu yo'nalishdagi investitsiyalarga ustuvor ahamiyat berish, boshqacha qilib aytganda, asosiy maqsadni yangi qurilishdan texnik qayta jihozlash va institusional qayta qurishga ko'chirish;
3. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarga byudjetdan subsidiyalar berish;
4. Korxonalar foydasidan ushlab qolingan mablag'larni investitsiya qilish va amortizatsiya ajratmalarini rasmiylashtirishda institutlar va investorlarning huquqlarini kengaytirish;
5. Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalar sonini qisqartirish va xususi, to'g'ridan to'g'ri moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining sonini ko'paytirish.

Bozor tizimi uchun samarali va mos davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va uni ilmiy asoslangan holda amalga oshirish, bu sohada zamonaviy menejment uslublarini rivojlantirish va uni tamoyillariga rioya qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini intensiv va dinamik o'sishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ.-М.:ИНФРА-М, 2001.-XII, 1028 с.
2. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: Учеб. Пособие. -М: Дело, 2004.-888 с.
3. Rustam Farmonovich Omanov. (2023). BENEFITS AND RISKS OF THE DIGITALIZATION.Intent Research Scientific Journal,2(12), 59–65. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/27>
4. Omanov, R. F. (2023). ACCOUNTING PROCESS.American Journal of Pedagogical and Educational Research, 19, 219-223.

5. Fayziyev Jahongir, & Samiyev Sardor Iskandarovich. (2023). Development of Financial Market Activity by Optimization of Stock Issuance. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 1(2), 6–9. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/76>
6. Inflation Targeting In Uzbekistan: Background And First Results SS Yakubova *International Journal On Economics, Finance And Sustainable Developmen*
7. Ikramovich, R. Z., & Khamidovich, T. S. (2022). The Role of Fiscal Policy in Ensuring the Financial Stability of Uzbekistan. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 361-366.
8. Omanov Rustam Farmonovich. (2023). DIGITIZATION OF MANAGEMENT ACCOUNTING. *Neo Scientific Peer Reviewed Journal*, 17, 18–20. Retrieved from <https://neojournals.com/index.php/nspj/article/view/345>
9. Rustam Farmonovich Omanov , . (2023). INSTITUTIONAL BASICS OF SMALL BUSINESS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(12), 153–157. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/27743>
10. Omanov Rustam Farmonovich, G., & ErgashevTohir, B. (2021). Socio-Economic Aspects of the Development of Small Enterprises in the Kashkadarya Region of Uzbekistan. *Design Engineering*, 6523-6531
11. САМИЕВ, С. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ Учредители: Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека, (2), 10-18
12. WAYS TO IMPROVE MARKETING ACTIVITIES IN THE TOURISM SECTOR YS Shukhratovna, NM Ali *Gospodarka i Innowacje*. 40, 137-143
13. Yakubova, S. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI VA RAQAMLI AKTIVLARNING MOHIYATI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(3), 84–92. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp84-92> Другие форматы
14. ESSENCE AND ANALYSIS OF THE BENEFITS OF DIGITAL ASSETS S Yakubova, R Rashidov *Innovatsion texnologiyalar* 52 (04)
15. Yakubova, S. S. (2021). (2021)." Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development".

Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

16. Раимова, М. Д., & Махатов, С. И. (2022). Пути ускорения развития туризма и повышения его роли в экономике. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 395-400
17. Ikramovich, R. Z., & Mirjalilovich, I. A. (2021, June). THE IMPORTANCE OF TAX POLICY IN THE FORMATION OF BUDGET REVENUES. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 122-124).
18. Farmonovich, O. R., & Azimovich, S. S. (2024). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN. *Intent Research Scientific Journal*, 3(1), 40-43
19. Omanov, R. F. (2023). ТРЕХФАКТОРНАЯ МОДЕЛЬ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 22, 141-143
20. ЎЗБЕКИСТОН НЕФТЬ-ГАЗ КОРХОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИНИНГ ҲОЗИРГИ АҲВОЛИ ВА УНГА ХОС БЎЛГАН ТЕНДЕНЦИЯЛАР СИ Самиев Экономика и финансы (Узбекистан), 10-18
21. Yakubova, S., & Yakubova, S. (2023). ISSUES OF ACCOUNTING FOR EXCHANGE DIFFERENCES AND BORROWING COSTS IN THE FORMATION OF THE COST OF INVENTORIES IN ACCORDANCE WITH NAS AND IFRS. *Economics and Innovative Technologies*, 11(5), 75–81. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss5/a10WAYS OF EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF MONETARY POLICY IN OUR COUNTRY. SS YAKUBOVA, RI RASHIDOV, MXQ UMAROVA, KTUGLI URINOV THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука
22. Raimova, M., Makhatova, N., & Salokhiddionova, G. (2022). THE ROLE AND DEVELOPMENT OF ONLINE TOURISM IN THE WORLD. *Scientific progress*, 3(2), 931-937.
23. Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги Р Рашидов, Ш Якубова
24. Якубова, Ш. (2024). Исследование цифровой валюты центрального банка как новой формы денег. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(8).
25. Якубова, Ш. Ш. (2024). Оценка влияния введения цифровой валюты на денежную сферу. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(8).

26. Джураев, А. М., & Сидорова, Е. Ю. (2022, May). Интенсификация значимости экологической налоговой реформы в Узбекистане. In Трансформация национальной социально-экономической системы России, тренд цифровые технологии. Материалы III Международной научно-практической конференции. Москва, 4 декабря 2020 года (p. 274). Litres
27. Джураев, А. М. (2019). 1.1. Основные направления реформирования налоговой системы Узбекистана. Аудит и финансовый анализ, (6), 7-14
28. Сидорова, Е. Ю., & Джураев, А. М. (2021). Совершенствование налоговой системы Узбекистана. Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 17(7), 1392-1408
29. Джураев, А. М. (2019). Реформирование налоговой системы Республики Узбекистан: выбор пути развития. Актуальные вопросы современной экономики, (5), 465-469
30. Джураев, А.М. Теоретические основы методов прогнозирования налоговых поступлений и особенности их применения на практике / А.М. Джураев // Аудит и финансовый анализ. – 2020. - № 3. – С. 6-13. – ISSN 2618-9828
31. Джураев, А.М. Необходимость применения социальных вычетов при налогообложении доходов физических лиц / А.М. Джураев // Век качества. – 2021. - № 1. – С. 49-59. – Текст: электронный. - ISSN 2500-1841 URL: <http://www.agequal.ru/pdf/2021/121003.pdf> (дата обращения: 19.05.2021)
32. Джураев, А.М. Особенности налогового администрирования внешнеторговых операций / А.М. Джураев // Вестник. Институт экономики и антикризисного управления. – 2020. - № 30. –Текст: электронный. - DOI отсутствует. URL: <https://ieay.ru/wp-content/files/nd/vestnik/30/Dzhuraev.pdf> (дата обращения: 19.05.2021)
33. Джураев, А.М. Подходы к налоговому регулированию экономики: опыт развитых стран и возможность его применения в Узбекистане / А.М. Джураев // Фискальная политика как инструмент преодоления современных барьеров экономического развития России: сборник научных статей аспирантов и магистрантов; составители А. В. Тихонова. – Москва: РУСАЙНС, 2020. – С. 52-60. – ISBN 978-5-4365-4629-2
34. Джураев, А.М. Сидорова, Е.Ю. Направления совершенствования налогового администрирования в Узбекистане в постковидном периоде / А.М. Джураев, Е.Ю. Сидорова // Актуальные проблемы развития общества в постковидном мире: сборник

научных статей докторантов, аспирантов и магистрантов; составители Н. Касимова, Ш. Тошева. – Ташкент: TMI, 2021. – С. 75-81. – ISBN 978-9943-13-949-0

35. Kurbanovich, E. T. (2023). Ways of Management and Improvement of Innovative Processes in Small Business Enterprises.
36. Kurbanovich, E. T. (2023). Prospects for Innovative Development of Strategic Management of Enterprises.